

"O'zkimyosanoat" AJ nufuzli S&P Global agentligining ESG reytingini qo'lga kiritgan birinchi O'zbekiston kompaniyasi bo'ldi

// 19.02.2025

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-nufuzli-s-p-global-agentligining-esg-reyti>



"O'zkimyosanoat" AJga nufuzli xalqaro S&P Global agentligi tomonidan ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) reytingi taqdim etildi.

S&P Global tahlillariga ko'ra, "O'zkimyosanoat" AJning ESG ko'rsatkichi 29 ballni tashkil etdi.

Xalqaro reyting agentligi "O'zkimyosanoat" AJda:

- biznes axloqi bo'yicha yetakchi mavqe – korrupsiyaga qarshi yuqori standartlar,
- mehnat xavfsizligi va salomatlikni himoya qilish –xodimlarni himoya qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlar,
- shaffoflik va korporativ boshqaruv – hisobot berish tizimini mustahkamlash va ichki nazoratni kuchaytirish borasidagi faoliyatini yuqori baholagan.

Ta'kidlash joiz, mazkur reyting ko'rsatkichi "O'zkimyosanoat" AJning barqaror rivojlanishga bo'lgan sodiqligini va jamiyat oldidagi katta mas'uliyatini tasdiqlaydi! Bu jamiyatimizning shaffoflik va xalqaro standartlarga amal qilish yo'lidagi muhim qadamlaridan biri. Jamiyatimiz va tarmoq korxonalari o'z faoliyatini eko-do'stlik va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan tamoyillar asosida rivojlantirib, har tomonlama ishonchli biznes madaniyatini shakllantirmoqda!

ESG reytingining taqdim etilishi xalqaro hamkorlar va investorlarning jamiyatimizga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.

Bu esa o'z navbatida, jamiyatimiz va tarmoq korxonalariga barqaror investitsiyalarni jalb qilish, "yashil" loyihalarni moliyalashtirish va xalqaro bozorlarga chiqish uchun yangidan-yangi imkoniyatlarga yo'l ochadi!

Avvalroq "O'zkimyosanoat" AJ dunyodagi eng yirik reyting agentliklaridan biri bo'lgan Fitch Ratings ning BB- xalqaro reytingini ham qo'lga kiritgan.

"O'zkimyosanoat" AJ kelgusida ham ESG yo'nalishidagi islohotlarni davom ettirib, barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiq holda faoliyat yuritishda davom etadi!

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati